

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI AL-
XORAZMIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI TABIIY FANLAR
FAKULTETI 202-TUPROQSHUNOSLIK GURUHII TALABASI KARIMOVA
HABIBANING FALSAFA FANIDAN

REFERAT

MAVZU: *Qadimgi manba "Avesto"dagi falsafiy qarashlarning
mohiyati.*

TOPSHIRDI:

QABUL QILDI:

H.K.
5 B.K.

Karimova.H

Babajanov. S.B

URGANCH-2015

MAVZU: *Qadimgi manba “Avesto”dagi falsafiy qarashlarning*
Mohiyati

.

Reja:

Kirish

I. Asosiy qism

II. Avestoning yaratilish tarixi

III. Avesto qismlariga sharh

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar.

KIRISH

“Eng mo’tabar , qadimgi qo’lyozmamiz “ Avesto “ ning yaratilganiga 3000 yil bo’lyapti” ,- dedi Prezidentimiz Islom Karimov, tarixchi olimlar bilan uchrashuvda. – Bu nodir kitob bundan XXX asr muqadda ikki daryo oalig’da , mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlariga qoldirgan manaviy , tarixiy merosidir. “ Avesto “ ayni zamonda bu qadim o’lkada buyik davlat, buyuk manaviyat, buyuk madaniyat bo’lganidan guvoxlik beruvchi tarixiy xujjatdirki, uni hech kim inkor etolmaydi.

Prezidentimiz o’zbek xalqining betakror tarixi va madaniy- manaviy merosining naqadar chuqur ildizga ega ekanligini “Turkiston “ gazetasining muhbirlari savollariga bergan javobida xam yana bir bor eslatib o’tdi: “ Biz jahon maydonida kuni kecha paydo bo’lgan xalq emasmiz. Bizning millatimiz, xalqimiz ko’xna Xorazm zaminida “Avesto” paydo bo’lgan zamonlardan buyon o’z xayoti, o’z madaniyati, o’z tarixi bilan yashab keladi”.Ana shunday buyuk manaviy merosimiz bo’la turib, shu kungacha “Avesto”ning o’zbek tilida aloxida kitob xolida chop etilmaganligi, chuqur ilmiy o’rganilmaganligi ajablanarli xol albatta.

Manaviy xayotimizdagi bu kemptiklikni bartaraf etish niyatida “Guliston” jurnalida uning tarjimasini bosish va yig’ilgan materiallarni aloxida kitob tarzida xalqimizga yetkazishni maqsqd qilib qo’ydik. Buning boisi “Avesto” ning jahonshumul ahamiyatga egaligidir. U nainki o’zbek tiliga, balki barcha tillarga to’liq tarjima qilinishi va o’rganilishi zarur bo’lgan manaviy qadriyatdir.

Zero, “Avesto” umuman koinot va zamin, inson va xayot, o’lim va abadiyat singari butun insoniyatga mushtarak jumboqlar,savollar va savoblar haqida hikoya qiladi. “Avesto”da dunyoning yaratrilishi , insonning xalq bo’lib kamol topishi, ezgulik uchun yovuz kuchlar bilan kurashi, erkinlik, ijodkorlik va bunyodkorlik yo’lidagi orzulari o’z ifodasini topgan.

Avesto» eramizdan oldingi VII asrning oxiri va VI asrning boshlarida yaratilgan. Uning qadimgi qismlari miloddan avvalgi 2000-1000 yillarga taalluqli, deb qaraladi. «Avesto»ning bizgacha yetib kelgan nusxalarida Eron shohi Kayxisrav va Turon shohi Franhrasyan (Afrosiyob) o'rtasidagi munosabatlar ifodasini topgan. Bunday tarixiy voqyelik miloddan avvalgi 620 –yillarga to'g'ri keladi.

«Avesto» zardo'shtiylik dinining muqaddas kitobidir. Uning yaratilish vatani – Markaziy Osiyo. Shu sababli bu kitob Markaziy Osiyo xalqlarining mushtarak yodgorligidir. Avesto o'z davrining tarixi, fani, madaniyati, urf-odatlari, adabiyoti, iqtisodiy-ijtimoiy hayoti to'g'risida ma'lumot beruvchi qomusiy asardir. «Avesto» yaratilgan vaqtda 30 nask - kitob (qismdan) iborat bo'lganligi haqida ma'lumotlar bor. Markaziy Osiyoga turli bosqinchilarning kirib kelishi, zardo'shtiylik diniga sig'inuvchilarning ta'qib qilinishi natijasida kitobning ko'p qismi yo'qolib, oz qismi saqlanib qolgan. Bu xususda Beruniy «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida shunday yozadi: «Podshoh Doro ibn Doro xazinasida «Avesto»ning o'n ikki ming qoramol terisiga tilla bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar otashxonalarni vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarni o'ldirgan vaqtda uni yondirib yubordi. Shuning uchun o'sha vaqtdan beri «Avesto»ning beshdan uch qismi yo'qolib ketdi. «Avesto» o'ttiz nask edi. Ma'jusiylar qo'lida o'n ikki nask chamasi qolgan».

“Avesto” faqat odamnigina emas , balki bir hovuch tuproq, bir qultum suv,bir nafaslik xavoning ham muqaddas ekanligi xaqidagi kitob. “Avesto” eraning, daryolaru bog'lar, tog'laru buloqlar,ko'lu sahrolar,out tuyalar uyuri,o'simligu giyohlar, shahar va manzilgohlarning bunyod etish tarixiga doir asar;

“Avesto” nasroniyni haqiqiy nasroniy, musulmonni haqiqiy musulmon etib tarbiyalaydigan kitob. U ko'rning ko'zini, karning qulog'ini ochadi, zanglagan ko'ngillarni iymon suvi ila yuvadi, umidsiz ko'ngillarga

abadiyat shamchirog'ini tutqazadi. Qisqasi , xayot va ohirat manosini odamlarga tushuntiradi

«Avesto»ning qisqargan shakli «Zand Avesto» deb nomlangan. U pahlaviy, sanskrit (qadimgi hind) tiliga tarjima qilingan va sharhlar bitilgan. U bir necha marta Yevropa tillariga, jumladan, rus tiliga ham ag'darilgan. «Avesto»ni o'zbek kitobxonlari A.Mahkam, M.Isoqov va boshqalar tarjimasida o'qishmoqda.

Yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash «Avesto»ning bosh g'oyasidir. Yaxshilik ramzi – yakka xudo Axura Mazda, yomonlik ramzi – Ahrimandir. Hozirgacha «Avesto»ning ikki varianti mavjud. Birinchisi faqat «Avesto»ning o'zidan iborat. Ikkinchisi esa pahlaviy tilidagi sharhli tarjimadan tashkil topgan bo'lib, u bir necha qismlarga ajratilgan. Ular quyidagilar: 1. Vendidot. Axura Mazda bilan Zardushtning savol-javobi tarzida bitilgan. Jami 22 bob. 2. Visparad. Ibodat qo'shiqlari berilgan. Jami 24 bob. 3. Yasna. Qurbonlik qo'shiqlari, xudolar madhiyasi hamda diniy marosimlar tavsifi berilgan. U 72 bobdan iborat bo'lib, 17 bobi gotlar – madhiyalar deb atalgan. 4. Yasht. 22 qo'shiqdan iborat. Qo'shiqlarda zardushtiylik xudolari va ma'budalari madh etilgan. 5. Kichik Avesto. Quyosh, Oy, Ardvisura, Varxra kabi xudo va ma'budalar madh etilgan ibodat qo'shiqlari beriladi.

«Avesto» o'zbek ilm-fanida, xususan, N.Mallayev, F.Sulaymonova, B.To'xliyev, T.Mahmudov, N.Norqulovlarning tadqiqotlarida tahlil etilgan.

«Avesto» diniy kitob bo'lish bilan birga, eng avvalo, u nodir adabiy yodgorlikdir. Asar she'riy yo'l bilan yozilgan. Qadimda yashagan xalqlarning og'zaki adabiy merosi berilgan. Kayumars, Yima, Gershasp, Arjasp, Mitra haqidagi asotir hamda afsonalar qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklardir.

«Avesto»da osmon jismlarida ilohiylik belgilarining ko'rsatilishi turkiy xalqlarning diniy e'tiqodlariga yaqin turadi. Jumladan, quyosh xudosi

Mitra haqidagi tasavvurlar shunday xususiyatga ega. «Avesto»da qadimgi turkiy qavmlar va ularning hukmdorlari, qahramonlarining badiiy tasvirlari ham ifodasini topgan. Unda turkiylar tur nomi bilan beriladi. Turkiy va forsiy xalqlar adabiyotida Afrosiyob, Siyovush, Kayxisrav haqida yaratilgan turkum rivoyat va afsonalarning dastlabki namunalari «Avesto»da yaratilgan.

«Avesto»dagi mifologik obrazlar o'zbek xalq og'zaki ijodi taraqqiyotiga ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan. Buni o'zbek xalq og'zaki ijodida mavjud ayrim obrazlarning tug'ilishi zardo'shtiylik bilan bog'langanligi misolida ko'rish mumkin

Avesta» zardushtiylik (zoroastrizm) dinining muqaddas kitobidir. Zardushtiylikning kurtaklari ibtidoiy jamoa davrida vujudga keldi. Zardushtiylik dini quldorlik va ilk feodalizm davrida O'rta Osiyo, Eron va Ozarbayjonda asosiy diniy e'tiqodlardan biri sifatida keng tarqaldi, bu din sinfiy jamiyatda, ibtidoiy jamoa davridagi ayrim demokratik elementlarini saqlab qolgan bo'lishiga qaramay, quldorlar va feodallarning dunyoqarashi va manfaatlarini ifodaladi. Arab bosqinchilari istilosi (VII-VIII asrlar)dan so'ng ham zardushtiylik dini birmuncha vaqt saqlanib qoldi.

«Avesta» zardushtiylikning muqaddas kitobi bo'lishi bilan birga, u uzoq asrlarning tarixi, iqtisodiy-ijtimoiy hayoti, madaniyati, tili, yozuvi va xalq og'zaki ijodining manbai, muhim yodgorligi sifatida qadimgi O'rta Osiyo, Ozarbayjon, Eron va boshqa mamlakatlarni o'rganishda nihoyatda katta ahamiyatga egadir.

«Avesto»ning, xususan, uning qadimgi qismlarining vujudga kelgan joyi masalasi juda munozaralidir. Bu munozara dastavval «Avesto»ning asosini tashkil etgan zardushtiylikning paydo bo'lishi haqijagi tortishuvlar bilan bog'liqdir. Bu masalda olimlar o'rtasida bir-biriga qarama-qarshi ikki xil qarash bor. Bu qarashlarning biri - zardushtiylik Midiyadan tarqalgan deb hisoblovchi «G'arbiy» nazariya bo'lib,

ikkinchisi - zardushtiylik dastlab O`rta Osiyoda paydo bo`lgan degan «Sharqiy» nazariyadir. O`tmishning va hozirgi davrning ko`pchilik sharqshunoslari «Sharqiy» nazariya tarafdorlaridir.

Tarixiy faktlar, lingvistik ma`lumotlar «Sharqiy» nazariyaning to`g`riligini quvvatlaydi va isbot qiladi. Xuddi shuningdek «Avesta»dagi geografik atamalar ham uni Midiya bilan emas, balki O`rta osiyo bilan bog`laydi. Rivoyatlarga qaraganda zardushtiylikning asoschisi bo`lgan Zardusht - Zardushtaning tug`ilgan mamlakati ta`rifida «Avesta»da bunday deyiladi: U shunday «mamlakatki, u erda son-sanoqsiz qo`shinlarga bahodirlar sardorlik va yo`lboshchilik qiladi, o`tloqlar va suvga serob baland tog`lar chorvachilik uchun zarur bo`lgan barcha narsani yetkazib berib turadi. U yerda sersuv chuqur ko`llar bor, kema qatnaydigan keng daryolar (bu daryolar Amudaryo va Sirdaryodir) o`zlarining to`lqinli suvlarini shiddat bilan Iskat (assuriycha «assuriycha» «Ishkuzan» - Skifiya), Pourut (Qobil daryosi vodiysi), Mour (Marv), Xareva (Ariya), Gav (So`g`ddagi bir oblast), So`g`da (So`g`d), Xvayrizm (Xorazm) mamlakatlariga eltadi».

«Avesto», shubhasiz, O`rta Osiyo doirasi bilan chegaralanib qolmadi. U uzoq tarixiy tarqqiyot bosqichini kechdi; zardushtiylikning Eron, Ozarbayjon va boshqa o`lkalarga tarqalishi bilan «Avesta» ham u joylarga kirib bordi; unga turli o`zgarish va yangiliklar kiritildi. «Avesto»ga O`rta Osiyo xalqlarining (tojiklar, turkmanlar va o`zbeklarning) qadimgi ota-bobolari asr asos solishi bilan birga, unga eronliklar ham, ozarbayjonlar ham katta hissa qo`shdilar. Bu «Aevsta»ga ma`lum mushtarak yodgorlik tusini berdi.

An`anaviy ma`lumotlarga qaraganda, «Avesto» eramizdan avvalgi VII asrning oxiri va VI asrning boshlarida yaratilgan. Unga Zardusht asos solgan (Beruniy ma`lumoticha, Zardusht Ozarbayjonda tug`ilgan. Biroq fanda Zardusht shaxsi, uning o`tgan-o`tmagani haqida, shuningdek, «Avesto»ning makoni haqida hamon munozarali fikr-mulohazalar davom etib keladi). Lekin «Avesto»ning shakllanishi va takomilini bir

kishining nomi bilan bogʻlab boʻlmaydi. Chunki u uzoq davrlarning mahsuli boʻlib, bu davrlar davomida qayta-qayta ishlangan. «Avesto»ning muqaddas kitob sifatida toʻla shakllanilishi esa eramizdan avvalgi birinchi ming yillik oʻrtalariga toʻgʻri keladi. Koʻpchilik manbalardagi anʻanaviy maʼlumotlarga qaraganda, «Avesto» 21 nask - kitob (qism)dan iborat boʻlgan ekan. Biroq Aleksandr Makedonskiy va arab bosqinchilari istilosi natijasida ulardan koʻpi yoʻqolib, juda oz qismi saqlanib qolgan. Bizga qadar saqlanib qolgan «Avesto» yodgorliklarining eng qadimgi nusxasi 1324 yilda koʻchirilgan boʻlib, u Kpengagenda saqlanadi.

«Aevsto»ning ayrim nusxalarida aevsto tilidagi tekst bilan birga pahlaviy tilidagi sharhli tarjimalar ham bor. Sharhlar «Zend Avesto» deb nomlangan. «Avesto» teksti sanskrit tili (qadimgi hind tili)ga ham sharhlar bilan tarjima qilingan. U ayrim Evropa tillariga, uning bir necha qismi esa rus tiliga ham tarjima qilingan

Xalqimizning qadimiy yozma manbalaridan boʻlgan «Avesto»da gʻoya va hayot uygʻunligi, uni chuqur anglash, turmush tarziga aylantirish yuksak eʼtiqod darajasiga koʻtarilgan. Miloddan avvalgi toʻqqizinchi asrlarda shakllana boshlab, keyin yaxlit bir taʼlimotga aylangan mazdakilik dini olam yaxlitligi gʻoyasini ilgari surdi va uni «Avesto»da izohlab berdi. Zardoʻsht nomi bilan bitilgan bu kitobda, jumladan, yerga, suvga, havoga, hayvonot dunyosiga, zamonaviy til bilan aytadigan boʻlsak, ekologik masalalarga insoniy munosabat oʻziga xos usulda ifodalab berilgan.

Mamlakatimiz Prezidenti oʻzining «Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch» asarida taʼkidlaganidek, «Avesto»da borliqning yaxlitligi va bir butunligi, inson hayotining tabiat bilan uygʻunligi masalasi odamning ruhiy olamiga chambarchas bogʻliq holda koʻrsatilgani koʻp narsani anglatadi. Bu holat insonning maʼnaviy dunyosini shakllantirishda atrof-muhit qadim zamonlardan buyon qanday kuchli taʼsir oʻtkazib kelganiga yana bir bor eʼtiborimizni jalb qiladi. Darhaqiqat, «Avesto» taʼlimoti

tabiat, jamiyat va inson o'rtasidagi munosabatlar ma'naviy, ruhiy, falsafiy va axloqiy uyg'unlikda bo'lishini tarannum etadi.

«Avesto»da ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal g'oyasi tabiatni asrab-avaylashda o'z ifodasini topgan. Qadimdan ajdodlarimiz chorvachilikni rivojlantirishga katta ahamiyat berganlar. Tog' qoyalariga tushirilgan har xil hayvonlarning tasvirlari ham shuni tasdiqlaydi. «Chorva mollari uchun yaylovlari mo'l bo'lgan bu sarzaminlarga olqishlar bo'lsin!», «Chorvachilik rivojlangan, bug'doylari mo'l hosil beradigan ekinzorlarni olqishlaymiz!» kabi alqovlar «Avesto»da ko'plab uchraydi. Zardo'sht o'z ta'limotida chorvador tarbiyasiga ham alohida e'tibor bergan. Ular uchun maxsus sinov, imtihonlar o'tkazilgan. Tabiiy yaylovlar bilan bir qatorda Amudaryo sohillarida inson qo'li bilan qo'shimcha sun'iy yaylovlar yaratilgani, yiroqdagi cho'ponlar uchun yashash maskanlari, chorva hayvonlari uchun maxsus joylar barpo qilingani, u yerlarda hayvonlarning naslini saqlash va yaxshilash, ko'paytirish borasidagi ishlar to'g'risida ma'lumotlar bor.

«Avesto»da, shuningdek, yerga, unga ishlov beruvchilarga bag'ishlangan alohida alqovlar mavjud. Kitobda aytilishicha, Axura Mazda nazdida eng baxtiyor kishi hammadan ko'p bug'doy, giyoh va mevali daraxtlar ekan zotdir! U quruq yerlarga suv chiqargan va suvli yerlarni shudgor qilgan. Yana shunday so'zlarni uchratasiz, «Qachonki egatlarda urug' yetilsa, devlar o'rinlaridan qo'padilar. Qachonki bug'doy gurkirab ko'karsa, devlar dahshatdan titray boshlaydilar. Qachonki bug'doy un bo'lsa, devlar nola chekadilar. Qachonki bug'doy xirmonga uyulsa, devlar nobud bo'ladilar. Qay bir xonadonda bug'doy bosh chiqarsa, u xonadonga devlar yaqinlasha olmaydi... Qay bir xonadonda bug'doy ombori bo'lsa, go'yo qizdirilgan temir devlar bo'ynini chirmab tashlaydi».

Zardo'sht dehqonchilik bilan shug'ullanishni, yerdan unumli foydalanishni barcha toat-ibodatdan afzal deb biladi: kimda-kim bug'doy eksa... u mazda dinini yuzlab hamdu sano, nazru niyoz va o'n

minglab qurbonlik bilan quvvatlantirgandek qudratli qiladi. «Avesto»ning «Zam» deb atalgan qismi birinchi 9 bandini o'ziga xos jug'rofiy doston deb ham ataydilar. Unda nomi, tavsif keltirilgan tog'lar hozir O'rta Osiyo tog'lari, ulardagi tizmalar, cho'qqilarga muvofiqdir. Masalan, Xaratti – yuksak tog' mag'ribdan mashriqqacha cho'zilgan Xaratti-Xartang, Zardaza-Zaraut soyi bo'ylab joylashgan tog' tizmasi. Manusha – Andijon-Xo'jaobod tumanidagi Odam tog' (Tangri tog') Tyan-Shanning nomlaridan biridir.

«Avesto»da yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga, suvning tozaligini ta'minlashga, uning inson hayotidagi ahamiyatiga jiddiy e'tibor berilgan, suv ilohiylashtirilgan. «Ey, suvlar! – deyiladi kitobda. – Sizlar yaxshilik bilan ravonasiz, xilqatni yuvib pok etasiz va ikki jahon saodatiga sazovorsiz».

Sharq falsafiy tafakkuriga ilk bor axloq kategoriyasini kiritgan Zardo'sht hatto o'z ta'limotining sofligini ham suv bilan tenglashtiradi: «Amudaryo naqadar buyuk va suvi qanchalik pok va shirin bo'lsa, bizning ta'limot ham shunchalik buyuk va pokizadir». Suvning tozaligini saqlash, undagi g'uborni ketkazishga Zardo'sht o'z kitobida ko'p marta e'tiborni qaratadi va uning sofligini ta'minlaganlarga ajru mukofotlar, iflos qilganlarga esa dahshatli azoblar borligini eslatadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ajdodlarimiz qoldirgan buyuk meros bobokalonlarimiz yuksak ekologik ma`naviyat egalari bo'lganidan dalolatdir. Bunday yuksak qadriyatlar esa nafaqat mamlakatimizda va mintaqamizda, balki butun Yer yuzida ekologik vaziyat jiddiylashib borayotgan bugungi kunda barchamiz uchun muhim ma`naviy-tarbiyaviy manba bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Ma'naviyat yuksalish yo'lida. T., 1998 y.
2. Karimov.I.A. "Yuksak ma'naviyat yengilmas - kuch" T., Ma'naviyat-2008 y.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T., 1998 y.
4. "Falsafa" o'quv uslubiy majmua. Urganch-2015
5. O'zbekiston xalqlari tarixi. T., 1992 y.
6. "Avesto" - Tarixiy -adabiy yodgorlik . T. 2001.
7. Toxir Karim. Mukaddas Avesto izidan. T. 2000 y.
8. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliqlar.
9. Kamalova D.M. Uzbekskaaya xudojestvennaya kul'tura. T., 1995 g.
10. O'zbekiston tarixi va madaniyati. T., 1992 g.